

DEMOGRAFIYA VA MEHNAT BOZORI



Elektron ilmiy-ommabop jurnal

2025

2 -SON

(+998) 50-005-45-69

https://t.me/demografiya_mehnatbozori

demografiya_mehnat_bozori@mail.ru

**DEMOGRAFIYA
VA MEHNAT
BOZORI**

**2025-yil
2-son**

Elektron ilmiy-ommabop jurnal
Электронный научно-популярный журнал
Electronic popular science journal

BOSH MUHARRIR:

Umurzoqov Bahodir Xamidovich

MUHARRIR:

Bahriddinova Muazzam Azam qizi

TAHRIR HAY' ATI:

Abduraxmonov Qalandar Xodjaevich, i.f.d., akademik.
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof.,
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof.,
Axmedov Durbek Quadratillaevich, i.f.d., professor
Umurzakov Baxodir Xamidovich, i.f.d., prof.,
Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, i.f.d., prof.,
Arabov Nurali Uralovich, i.f.d., prof.,
Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna, i.f.d., prof.,
Mamadaliyeva Xafiza Xoldarovna, i.f.d., prof.,
Irmatova Aziza Baxromovna, i.f.d., prof.,
Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, g.f.d., professor
Isayev Faxriddin Ikramovich, i.f.d., prof.
Usmanov Anvar Saidmaxmudovich, i.f.d., professor
Qodirov Abdurashid Madjidovich, i.f.d., professor
Hermann Sterzinger, i.f.d., professor (Germaniya)
Ergashxodjaeva Shaxnoza Djasurovna, i.f.d., professor
Tomash Kuchera, i.f.d., professor (Chexiya)
Abrorov Sirojiddin Zuxriddin o'g'li, PhD
Shakarov Zafar Gaffarovich, PhD, dotsent
Maxmudov Asliddin Sirojiddin o'g'li, PhD
Gulmurodov Kamoliddin Abduqodir o'g'li, PhD
Asqarova Muhabbat Ibraximovna
Bahriddinova Muazzam Azam qizi

MUNDARIJA

Умурзаков Баходир Хамидович, Акбарова Малика Ильхомовна <i>Стратегические направления повышения занятости населения в Республике Узбекистан: анализ современного состояния и прогнозирование на период до 2030 года.....</i>	4
Saidjabbor Shoiria Saidg'affor q'izi <i>Гендер тенглиги ва минтақаларнинг барқарор ривожланишини таъминлашнинг хорижий амалиёти.....</i>	17
Файзиева Дилафруз Шухратовна <i>Демографик ўсиш ва иқтисодий ривожланишнинг ўзаро алоқадорлиги.....</i>	34
Gulmurodov Kamoliddin Abduqodir o'g'li <i>O'zbekiston aholi soniga tashqi mehnat migratsiyasining ta'sirini baholash.....</i>	46
Xudayberdiyev Islamjan Zakirovich <i>Aholining kapital bozorda ishtirok etishga bo'lgan qiziqishini baholash.....</i>	55
Ibrogimov Sherzodbek Xalimjon o'g'li <i>Hududlarda yashil iqtisodiyot sharoitida innovatsion jarayondan foydalangan holda zamonaviy mehnat bozorining rivojlanishi.....</i>	63
Yunusova Ugiloy Bolqiboyevna <i>Problems and solutions in organizing public events in Uzbekistan.....</i>	74
Maxmudov Asliddin Sirojiddin o'g'li <i>Moliyaviy salohiyatni baholash metodologiyasini shakllanishida makroiqtisodiy indikatorlarning ahamiyatliligi.....</i>	88
Soatov Farhod Komiljon o'g'li <i>Raqamli platformalar orqali real vaqt rejimida boshqaruv hisobotlarini shakllantirish</i>	103
Жулиева Гулноз Юлдашевна, Джулибеков Нурмат Каршибекович <i>«Зелёная» экономика Республики Узбекистан, перспективы развития.....</i>	113
Умурзаков Баходир Хамидович <i>Меҳнат ресурсларининг сифат ва малакавий таркибини шакллантиришда инновацион тенденциялардан фойдаланишнинг хориж тажрибаси таҳлили.....</i>	120
Мирзаева Матлуба Ғайбулла қизи <i>Банклар ресурс базасини мустаҳкамлашда капиталнинг ўрни.....</i>	129
Mamatqulova Mushtariy Komiljon qizi <i>O'zbekiston fiskal siyosatining mehnat migratsiyasi va bandlikka ta'siri: konseptual tahlil</i>	135
Jurayev Elyorbek Sobirjon o'g'li <i>Kichik biznes uchun investitsion muhitni yaxshilashning asosiy yo'nalishlari.....</i>	
Samijonov Musobek G'ayratjon o'g'li <i>Xorijiy investitsiyalar va sanoat korxonalarini modernizatsiyalash: muammo va imkoniyatlar</i>	160
Suvonov Bekniyoz Baxtiyor o'g'li <i>Mehnat ko'rsatkichlari tahlilining xorij tajribasi va undan respublikamizda qo'llash jihatlari.....</i>	140

O'ZBEKISTON FISKAL SIYOSATINING MEHNAT MIGRATSIYASI VA BANDLIKKA TA'SIRI: KONSEPTUAL TAHLIL

Mamatqulova Mushtariy Komiljon qizi
TDIU huzuridagi "O'zbekiston iqtisodiyotini
rivojlantirishning ilmiy asoslari va muammolari"
ilmiy-tadqiqot markazi doktoranti
ORCID: 0009-0000-8092-0365
mushtariymamatqulova@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada fiskal siyosatning mehnat migratsiyasi va bandlikka ko'rsatadigan ta'siri konseptual tahlil asosida o'rganiladi. Ya'ni, fiskal mexanizmlar (soliglar, byudjet xarajatlari, subsidiyalar, kompensatsiyalar) orqali mehnat migratsiyasining hajmi va yo'nalishlari qanday boshqarilishi mumkinligi, bandlik darajasi va sifati qanday o'zgarishi mumkinligi o'rganiladi. Shuningdek, xalqaro tajribalar tahlili asosida O'zbekiston fiskal siyosatining mavjud holati, uning ijobiy natijalari va haligacha saqlanib qolayotgan tizimli muammolar baholanadi. Mehnat migratsiyasining ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini, ayniqsa, ichki mehnat bozori muvozanatiga ta'siri tahlil qilinib, fiskal siyosat orqali qanday iqtisodiy va institutsional mexanizmlar bilan bu ta'sirni muvozanatlashtirish mumkinligi haqida ilmiy-amaliy xulosalar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: Fiskal siyosat, mehnat migratsiyasi, bandlik, soliq imtiyozlari, byudjet siyosati, rasmiy bandlik, iqtisodiy barqarorlik, proaktiv yondashuv, reaktiv choralar, mehnat bozori.

ВЛИЯНИЕ ФИСКАЛЬНОЙ ПОЛИТИКИ УЗБЕКИСТАНА НА ТРУДОВУЮ МИГРАЦИЮ И ЗАНЯТОСТЬ: КОНЦЕПТУАЛЬНЫЙ АНАЛИЗ

Маматкулова Муштарий Комильжон кизи
Докторант научно-исследовательского центра
«Научные основы и проблемы развития
экономики Узбекистана» при ТГЭУ

Аннотация. В данной статье на основе концептуального анализа исследуется влияние фискальной политики на трудовую миграцию и занятость. Изучаются способы регулирования объёмов и направлений трудовой миграции посредством фискальных механизмов (налогов, бюджетных расходов, субсидий, компенсаций), а также способы изменения уровня и качества занятости. Также на основе анализа международного опыта оценивается современное состояние фискальной

политики Узбекистана, её положительные результаты и сохраняющиеся системные проблемы. Анализируются социально-экономические последствия трудовой миграции, особенно её влияние на сбалансированность внутреннего рынка труда, и делаются научно-практические выводы о том, какие экономические и институциональные механизмы могут быть использованы для балансировки этого влияния посредством фискальной политики.

Ключевые слова: Фискальная политика, трудовая миграция, занятость, налоговые льготы, бюджетная политика, официальная занятость, экономическая стабильность, проактивный подход, реактивные меры, рынок труда.

THE IMPACT OF UZBEKISTAN'S FISCAL POLICY ON LABOR MIGRATION AND EMPLOYMENT: A CONCEPTUAL ANALYSIS

Mamatkulova Mustariy

Doctoral student at the Scientific Research Center
“Scientific foundations and problems of
economic development of
Uzbekistan” under TSUE

Abstract. This article examines the role of payroll and tax digitalization in enhancing the stability of the labor market. The relevance of the topic is justified within the context of global digital transformation and the growing need for transparency and formalization in labor relations. Through a comparative approach, the paper analyzes international experiences from countries such as Estonia, Germany, the United States, and India, contrasting them with recent reforms in Uzbekistan. Using correlation and regression analysis, the study explores the relationships between digitalization indicators and labor market metrics, such as formal employment, tax revenue growth, and the reduction of the informal economy. The results show that digital tools significantly contribute to labor market resilience and institutional integrity. The article concludes with practical recommendations for strengthening digital infrastructure and legal frameworks to ensure sustainable economic and social outcomes.

Keywords: Fiscal policy, labor migration, employment, tax incentives, budget policy, formal employment, economic stability, proactive approach, reactive measures, labor market.

Kirish.

Global iqtisodiy o'zgarishlar, demografik bosim va ishchi kuchi harakatchanligining ortib borishi sharoitida fiskal siyosat mehnat bozori jarayonlariga tobora kuchliroq ta'sir ko'rsatmoqda. Xususan, rivojlanayotgan davlatlar uchun fiskal siyosat nafaqat makroiqtisodiy barqarorlikni ta'minlash vositasi, balki bandlikni rag'batlantirish, norasmiy sektordan rasmiy sektorga o'tishni jadallashtirish va mehnat migratsiyasi oqimlarini tartibga solishning muhim mexanizmi sifatida qaralmoqda. O'zbekiston misolida bu munosabatlar yanada dolzarb tus olmoqda, chunki mamlakatda aholi sonining barqaror o'sishi, ish o'rinlariga bo'lgan talabning yuqoriligi va tashqi mehnat migratsiyasining ko'lamdorligi fiskal siyosatning bandlik va migratsiya jarayonlariga qanday ta'sir ko'rsatayotganini chuqur o'rganishni talab qiladi.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi fiskal siyosatda muhim islohotlarni boshlab berdi. Byudjet xarajatlarining ijtimoiy yo'naltirilganligi kuchaytirilib, soliq-boshqaruv tizimi soddalashtirildi, ijtimoiy himoya qamrovi kengaytirildi. Ayniqsa, bandlikni rag'batlantiruvchi soliqlarni kamaytirish, kichik biznes va o'zini o'zi band qilgan fuqarolar uchun soliq yengilliklarini joriy etish orqali rasmiy mehnat bozorini kengaytirish maqsad qilingan. Shu bilan birga, xalqaro mehnat migratsiyasi ham O'zbekiston iqtisodiyotida muhim o'rin tutmoqda. 2023-yil yakunlariga ko'ra, chet elda vaqtincha ishlayotgan fuqarolar soni 2 milliondan oshdi va ularning yuborayotgan pul o'tkazmalari yalpi ichki mahsulotning 11–13 foizini tashkil qilmoqda (O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi, 2024). Bunday vaziyatda davlat fiskal siyosatining ichki bandlikni rag'batlantirish va tashqi migratsiyaga alternativ muqobillar yaratishdagi roli o'ziga xos strategik ahamiyat kasb etmoqda.

Shuningdek, tashqi mehnat migratsiyasining fiskal siyosatga ko'rsatadigan teskari ta'siri ham e'tibordan chetda qolmasligi kerak. Chetda ishlayotgan fuqarolar yuborayotgan pul o'tkazmalari aholining iste'mol darajasini oshiradi, ichki bozorni jonlantiradi va byudjetga bilvosita tushumlar keltiradi. Shu bilan birga, migratsiya oqibatida yuqori malakali kadrlarning ketishi (brain drain), ayollar va yoshlar o'rtasida bandlik disbalansi, mehnat resurslarining demografik buzilishi kabi muammolar vujudga keladi. Bu esa fiskal siyosatni faqat iqtisodiy barqarorlik nuqtai nazaridan emas, balki ijtimoiy tenglik va demografik barqarorlik mezonlari asosida ham shakllantirish zarurligini ko'rsatadi.

Adabiyotlar sharhi.

Fiskal siyosatning mehnat migratsiyasi va bandlikka ta'siri masalasi xalqaro iqtisodiy adabiyotda nisbatan yangi, ammo jadal rivojlanayotgan yo'nalishlardan biri hisoblanadi. So'nggi yillarda bu borada olib borilgan tadqiqotlar fiskal mexanizmlarning mehnat harakatchanligi va bandlikka ta'sirini turli metodologik yondashuvlar orqali tahlil qilmoqda. Jumladan, Bandiera, Bertrand va Schoar (2020) o'z tadqiqotida soliqlar va subsidiya

tizimining rasmiy sektorni tanlashga bo'lgan ta'sirini o'rganib, soliq yengilliklari bandlikka rag'bat sifatida xizmat qilishini aniqlagan. Mishra va Facchini (2022) esa mehnat migratsiyasining manba davlat fiskal barqarorligiga qanday ta'sir ko'rsatishini model asosida tahlil qilib, tashqi mehnat migratsiyasi orqali ichki ishchi kuchi bosimini kamaytirish imkonini ko'rsatgan.

Xalqaro tajribalarda, xususan, Meksika, Filippin va Hindiston kabi davlatlarda olib borilgan tadqiqotlarda migratsiya va byudjet siyosati o'rtasidagi teskari bog'liqlik tahlil qilingan. Qator olimlar, jumladan, Chami, Fullenkamp va Jahjah (2018) migratsiyadan tushadigan pul o'tkazmalari ichki iste'molni oshirish orqali fiskal faoliyatga bilvosita ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi. Ayniqsa, bu resurslar soliq bazasini kengaytirish, investitsion faoliyatni rag'batlantirish va byudjet xarajatlarini optimallashtirishda muhim rol o'ynaydi. Shu bilan birga, migratsiyaga yo'l qo'yuvchi fiskal siyosatlar (masalan, ijtimoiy himoyaning zaifligi yoki rasmiy ish o'rinlari kamligi) kadrlar oqimini kuchaytirishi mumkinligi ham qayd etiladi (Docquier & Rapoport, 2021).

O'zbekiston kontekstida esa bu mavzuga oid ilmiy adabiyotlar hali rivojlanish bosqichida. Ammo Davlat Soliq qo'mitasi, Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi hamda Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi tomonidan e'lon qilingan statistik sharhlar va tahliliy hisobotlar bu yo'nalishdagi ilk ilmiy asoslar sifatida xizmat qilmoqda. Jumladan, 2023-yilgi "Raqamli fiskal islohotlarning bandlikka ta'siri" nomli milliy tahlilda, soliq tizimidagi soddalashtirishlar va subsidiyalangan ish o'rinlari orqali norasmiy bandlik darajasining 6 foizga kamaygani ko'rsatib o'tilgan. Shu bilan birga, O'zbekiston Mehnat kodeksi va Byudjet kodeksidagi oxirgi o'zgarishlar migratsiya oqimlarini muvozanatlashtirishga qaratilgan fiskal mexanizmlarning normativ bazasini mustahkamlashga xizmat qilmoqda.

Ilmiy adabiyotlarda fiskal siyosat va migratsiya o'rtasidagi o'zaro ta'sirga doir ikki asosiy yondashuv mavjud: biri — fiskal siyosatni mehnat migratsiyasiga ta'sir etuvchi tashqi omil sifatida ko'radigan yondashuv; ikkinchisi esa — migratsiyani fiskal siyosatni shakllantirishda e'tiborga olinishi lozim bo'lgan iqtisodiy realiyat sifatida baholaydi. Ushbu maqola esa ushbu ikki pozitsiyani uyg'unlashtirgan konseptual yondashuv orqali masalani kompleks tahlil qilishni maqsad qilgan.

Lastauskas va Stakėnas (2024) tomonidan Yevro hududida olib borilgan tadqiqotda mehnat bozoridagi fiskal vositalarning samaradorligi pul-kredit siyosatining umumiy sharoitlariga bog'liqligi ko'rsatib berilgan. Tadqiqotda aniqlanishicha, past foiz stavkalari sharoitida faol mehnat siyosatlari (subsidiyalangan ish o'rinlari, kasbiy tayyorlov dasturlari) ishsizlikni kamaytirishda kuchli ta'sirga ega bo'lgan bo'lsa, yuqori foiz stavkalarida esa ishsizlik sug'urtasi kabi passiv fiskal vositalar mehnat bozori barqarorligini

saqlashda samaraliroq natijalar bergan. Bu holat fiskal siyosat vositalarining iqtisodiy kontekstga bog'liqligini isbotlaydi.

Shu bilan birga, Moog (2024) Germaniya misolida minimal ish haqi bo'yicha umumiy federal qonun joriy etilgach, ichki mehnat migratsiyasiga qanday ta'sir ko'rsatganini empirik jihatdan tahlil qilgan. Tadqiqot natijalariga ko'ra, yangi minimal ish haqi me'yori past malakali ishchilarning ko'chib o'tish ko'rsatkichini 25 foizga oshirgan. Bunda soliqqa tortish tizimi va ish haqi subsidiyalarining yetarli darajada moslashtirilmaganligi ichki mehnat harakatchanligini kuchaytirgan omil sifatida ko'rsatilgan.

Filimonova, Ismatullaeva va Saydivaliyeva (2024) tomonidan O'zbekistonning migratsion siyosati va bandlik masalalariga bag'ishlangan konseptual izlanishda, fiskal mexanizmlarning, ayniqsa qishloq hududlarida mehnat muammolarini yumshatishda ijobiy ta'siri qayd etilgan. Xususan, subsidiyalangan ish o'rinlari va soliq yengilliklari qishloq aholisi uchun tashqi migratsiyaga bo'lgan ehtiyojni kamaytirgani aniqlangan. Shu bilan birga, mehnatga layoqatli yoshlarning xorijga chiqish holatlari ichki iqtisodiy barqarorlikka tahdid soluvchi omil sifatida ko'rsatilgan.

The Diplomat (2024) tahlilida esa O'zbekistonda 2024-yilda joriy etilgan yangi subsidiyaviy dastur - ya'ni chetdan qaytgan migrantlarni ishga yollagan ish beruvchilarga oylik pul kompensatsiyasi berilishi - fiskal yondashuv orqali migratsiyani ichki bandlikka yo'naltirishga qaratilgan amaliy choralar sifatida baholangan. Bu yondashuv migrantlarning "reintegratsiyasi"ga fiskal mexanizmlar orqali yechim topishga urinish bo'lib, mehnat migratsiyasining ikki tomonlama oqimini tartibga solishdagi davlat siyosati imkoniyatlarini ko'rsatadi.

Ushbu tadqiqotlar umumiy holda fiskal siyosatning mehnat bozori harakatchanligi va migratsion oqimlarga ta'siri murakkab, ammo boshqariladigan jarayon ekanligini ko'rsatmoqda. Har bir davlatda fiskal vositalarning samaradorligi iqtisodiy makrosharoitlar, ijtimoiy infratuzilma va institutsional salohiyat bilan chambarchas bog'liq bo'lib, O'zbekiston uchun bu natijalar konseptual va amaliy jihatdan muhim ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu tadqiqotda O'zbekiston Respublikasi fiskal siyosatining mehnat migratsiyasi va bandlik jarayonlariga ko'rsatadigan ta'sirini chuqur konseptual va empirik jihatdan o'rganish maqsad qilingan. Shu boisdan, tadqiqot metodologiyasi sifatida gibril (aralash) yondashuv tanlandi. Ya'ni, tahlil davomida nazariy-uslubiy yondashuvlar bilan bir qatorda empirik-statistik usullar uyg'unlashtirildi.

Birinchi bosqichda, konseptual tahlil asosida fiskal siyosat va mehnat migratsiyasi o'rtasidagi o'zaro bog'liqliklar aniqlab olindi. Bunda fiskal siyosat

tarkibiy qismlari – soliq siyosati, byudjet xarajatlari, subsidiyalar, ijtimoiy ajratmalar va ish o‘rinlarini moliyalashtirish mexanizmlari – asosiy tahlil obyekti sifatida tanlandi. Shu asosda davlat fiskal siyosatining mehnat bozori tarkibiy tuzilmasiga va migratsion oqimlarga qanday bevosita va bilvosita ta‘sir ko‘rsatayotgani aniqlashtirildi.

Ikkinchi bosqichda, komparativ tahlil (qiyosiy tahlil) usuli orqali O‘zbekiston tajribasi Estoniya, Germaniya, Hindiston va Filippin kabi mehnat migratsiyasi yuqori bo‘lgan davlatlar bilan solishtirildi. Bunda xalqaro tajribalardan kelib chiqqan holda fiskal vositalarning migratsiyaga va ichki bandlikka nisbatan qanday ishlashi tahlil qilindi. Solishtirma tahlil uchun xalqaro tashkilotlar – Jahon banki, ILO, IMF, UNDP – tomonidan taqdim etilgan ochiq manbalar va indikatorlar ishlatildi.

Uchinchi bosqichda, korrelyatsion tahlil usuli orqali O‘zbekistonda 2018–2024 yillar oralig‘ida quyidagi o‘zgaruvchilar o‘rtasidagi statistik bog‘liqliklar aniqlandi:

- fiskal rag‘batlar (subsidiyalar, soliq yengilliklari) ↔ bandlik darajasi,
- soliqqa tortish darajasi ↔ norasmiy bandlik ulushi,
- fiskal xarajatlar (ijtimoiy dasturlar) ↔ tashqi mehnat migratsiyasi hajmi.

Korrelyatsiya koeffitsiyentlari asosida har bir bog‘liqlikning kuchi va yo‘nalishi (ijobiy yoki salbiy) aniqlanib, bu natijalar migratsiya siyosatining fiskal vositalar bilan uyg‘unlashtirish darajasini ko‘rsatib berdi.

To‘rtinchi bosqichda, oddiy chiziqli regressiya tahlili orqali fiskal siyosat omillarining mehnat migratsiyasi va bandlikka sabab-oqibat munosabatlari o‘rganildi. Ushbu tahlilga quyidagi mustaqil o‘zgaruvchilar kiritildi: soliq stavkalari darajasi, subsidiya ajratmalari hajmi, ish haqi fondiga nisbatan byudjet ajratmalari. Natija o‘zgaruvchilar sifatida esa rasmiy bandlik darajasi, norasmiy sektor ulushi va tashqi mehnat migratsiyasi ko‘rsatkichlari olindi. Modelda statistik ahamiyatlik va izohlanish koeffitsiyentlari (R^2) baholandi.

Shuningdek, maqolada ilmiy-nazariy yondashuv sifatida fiskal siyosatning “reaktiv” va “proaktiv” modellari konseptual jihatdan ajratib ko‘rsatildi. Bunda migratsiyani oldini olishga yoki oqibatlarini yumshatishga qaratilgan fiskal choralar nazariy jihatdan tasniflandi va amaliy holatlar bilan bog‘landi.

Umuman olganda, tadqiqot metodologiyasi fiskal siyosat va mehnat migratsiyasi o‘rtasidagi murakkab tizimli bog‘liqlikni aniqlash, ularni o‘lchash, taqqoslash va model asosida baholash imkonini berdi. Bu esa maqola natijalarini asoslashda va amaliy takliflar ishlab chiqishda ishonchli ilmiy zamin bo‘lib xizmat qildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

So‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasida fiskal siyosatning mehnat migratsiyasi va bandlik jarayonlariga ta‘sirini kuchaytirishga qaratilgan tizimli

chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu jarayon mamlakatning iqtisodiy islohotlar strategiyasi doirasida olib borilayotgan fiskal barqarorlik, soliq yengilliklari, ijtimoiy himoya va ish o'rinlarini yaratishga qaratilgan siyosat bilan bevosita bog'liqdir. Ushbu siyosatning maqsadi – mehnat resurslarini mamlakat ichida samarali taqsimlash, tashqi mehnat migratsiyasining ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarini yumshatish, hamda rasmiy bandlik darajasini oshirish orqali ichki mehnat bozorini barqarorlashtirishdan iborat.

Konseptual tahlil nuqtai nazaridan, fiskal siyosatning ikki asosiy yo'nalishi mehnat migratsiyasi va bandlik bilan chambarchas bog'liq: birinchisi – soliq siyosati orqali norasmiy sektorni qisqartirish va rasmiy bandlikni rag'batlantirish, ikkinchisi – byudjet mablag'lari orqali ish o'rinlarini yaratish va mehnat muhojirlarini re-integratsiya qilish.

Masalan, 2022–2024 yillar davomida "Ijtimoiy himoya yagona reyestri" orqali aholi qatlamlariga to'g'ridan-to'g'ri subsidiya va yordam ko'rsatish tizimi joriy qilindi. Bu tizim orqali ehtiyojmand oilalarning a'zolari uchun kasb-hunar o'rganish, ish bilan ta'minlash yoki mikrokredit ajratish imkoniyatlari kengaydi. Ayniqsa, Rossiya va Janubiy Koreyadan qaytgan mehnat migrantlarini moslashtirish va iqtisodiyotga integratsiyalash bo'yicha 2023-yildan boshlab amaliy dasturlar joriy qilindi. Bu dastur doirasida xorijdan qaytgan fuqaroni ishga olgan tadbirkorga 6 oy davomida o'rtacha ish haqi miqdorida to'lov ajratiladi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Bandlik va kambag'allikni qisqartirish vazirligi tomonidan 2023-yildan boshlab "Hududiy bandlik dasturlari"ni moliyalashtirish uchun alohida byudjet ajratmalari joriy qilindi. Ushbu dasturlar doirasida kasb-hunarga o'qitish, mahalliy ishlab chiqarish loyihalarini subsidiyalash va ijtimoiy infratuzilma asosida vaqtinchalik bandlik loyihalari amalga oshirildi. Konseptual jihatdan bu fiskal yondashuv "proaktiv" modelga asoslangan bo'lib, ya'ni mehnat migratsiyasining ildiz sabablarini bartaraf etishga – ish o'rinlari, daromad, barqarorlik yetishmasligiga qarshi kurashishga qaratilgan.

Soliq siyosati doirasida esa yakka tartibdagi tadbirkorlar uchun soddalashtirilgan soliq tizimi joriy qilinib, 2024-yilda yangi "Erkin mehnat faoliyati" maqomi huquqiy jihatdan kuchga kirdi. Bu maqom fuqarolarga ro'yxatdan o'tmagan holda mehnat qilish imkonini bersa-da, ular soliq to'lovchilarning rasmiy bazasiga kiritiladi va ayrim ijtimoiy xizmatlardan (masalan, pensiya tizimi) foydalanish huquqiga ega bo'ladi. Bu mexanizm orqali norasmiy sektorni rasmiylashtirish va soliqqa tortish bazasini kengaytirish orqali davlat bandlik statistikalarini yaxshilashga erishilmoqda.

Moliyaviy jihatdan, 2023-yilda byudjet xarajatlarining 22 foizi ijtimoiy sohalarga, xususan, bandlik va ijtimoiy himoya sektorlariga yo'naltirildi. Shu bilan birga, "Har bir oila – tadbirkor" dasturi doirasida ajratilgan

mikromablag'lar soni 2024-yilda 1,5 barobarga oshdi. Bu esa ayniqsa ayollar va yoshlar o'rtasida o'zini o'zi band qilish imkoniyatlarini kengaytirdi. Ko'plab hollarda tashqi migratsiyaga yo'l olayotgan yoshlar ushbu dasturlar yordamida mahalliy ish o'rinlariga ega bo'lgan.

Yuqoridagilardan kelib chiqib aytish mumkinki, O'zbekistonda fiskal siyosat asta-sekin mehnat migratsiyasi oqimlarini tartibga solish va barqaror ichki mehnat bozorini shakllantirish vositasiga aylanmoqda. Biroq, ushbu jarayonda fiskal chora-tadbirlarning uzoq muddatli va tizimli natija berishi uchun ular boshqa iqtisodiy islohotlar – ta'lim, texnologik rivojlanish, hududiy tengsizlikni kamaytirish bilan uzviy bog'liq bo'lishi zarur. Shu sababli, fiskal siyosat faqat moliyaviy vosita sifatida emas, balki bandlik siyosatining strategik tarkibiy elementi sifatida baholanishi lozim.

1-jadval

Fiskal siyosat vositalari orqali bandlik va migratsiyaga ta'sir: O'zbekiston va xorijiy mamlakatlar tajribasi tahlili

Ko'rsatkichlar	O'zbekiston	Estoniya	Germaniya	Hindiston	Filippin
Rasmiy bandlik darajasi (%)	58.4%	91.3%	94.8%	57.6%	63.5%
Norasmiy bandlik ulushi (%)	40.1%	5.8%	4.8%	71.0%	36.2%
Soliq yengilliklari bandlik uchun	Cheklangan	Yuqori	Yuqori	Past	O'rtacha
Ish o'rinlari yaratishga ajratilgan byudjet (%)	6.8%	11.5%	13.5%	8.1%	9.0%
Migratsiyaga qarshi fiskal mexanizmlar	Endi shakllanmoqda	Kuchli integratsiya	Migrantga yo'naltirilgan	Yengil nazorat	Cheklangan integratsiya
Migratsiyadan qaytganlarga subsidiya	Mavjud	Mavjud	Mavjud	Cheklangan	Cheklangan
YAIMdagi migratsiya pul oqimi ulushi (%)	12%	0.3%	0.6%	3.2%	9.6%
Bandlik dasturlari soni (milliy miqyosda)	3 ta	6 ta	5 ta	4 ta	4 ta
Hududiy bandlik muammolariga fiskal yondashuv	Past	Yuqori	Yuqori	O'rtacha	O'rtacha

Izoh: Ma'lumotlar 2023–2024 yillardagi ILO, OECD, World Bank va Milliy Statistika qo'mitalari hisobotlari asosida shakllantirilgan.

Bugungi global mehnat bozorida fiskal siyosat davlatlar tomonidan ish o'rinlari yaratish, mehnat migratsiyasi oqibatlarini boshqarish va rasmiy bandlik darajasini oshirishda asosiy iqtisodiy vosita sifatida keng qo'llanilmoqda.

O'zbekiston ham ushbu yondashuvni bosqichma-bosqich o'z iqtisodiy siyosatiga integratsiyalashni boshlagan. Quyidagi tahliliy jadval Estoniya, Germaniya, Hindiston va Filippin kabi davlatlar bilan O'zbekiston fiskal siyosatini qiyosiy o'rganishga xizmat qiladi. Ushbu davlatlar tanlanishining sababi – har biri fiskal mexanizmlarni turli darajada va modelda qo'llayotgan mamlakatlar sifatida dolzarb tajribaga ega bo'lishidir.

Jadval tahlilidan ko'rinadiki, O'zbekiston fiskal siyosatining mehnat migratsiyasi va bandlikka ta'siri bo'yicha hali izchil va kompleks yondashuv darajasiga chiqqani yo'q. Estoniya va Germaniya tajribalari ko'rsatadiki, rasmiy bandlikni rag'batlantirish uchun soliq yengilliklari, ijtimoiy himoya paketlari va migratsiyadan qaytganlar uchun integratsion dasturlar muhim rol o'ynaydi.

Hindiston va Filippin tajribasi esa fiskal siyosat va mehnat migratsiyasi o'rtasidagi zanjir kuchsiz bo'lganida, norasmiy bandlik darajasi yuqori bo'lib qolishini anglatadi. O'zbekistonning o'ziga xos jihati – migratsiyadan tushadigan pul oqimining yuqoriligi (YAIMning 12 foizigacha) bo'lishiga qaramay, bu resurslardan bandlikni barqarorlashtirishda samarali foydalanish mexanizmlari yetarlicha shakllanmaganidir.

Shu sababli, Estoniya va Germaniya tajribalari asosida O'zbekistonda fiskal siyosatni mehnat bozoriga strategik integratsiyalash, regional bandlik tengsizliklarini bartaraf etuvchi dasturlarni moliyalashtirish, hamda migratsiyadan qaytgan fuqarolarni qo'llab-quvvatlash tizimini kengaytirish dolzarb vazifa sifatida turibdi.

O'zbekiston fiskal siyosatining mehnat migratsiyasi va bandlikka ta'siri bo'yicha olib borilgan tahlillarda korellyatsion va regression yondashuvlar muhim metod sifatida qo'llaniladi. Ular fiskal ko'rsatkichlar bilan mehnat bozori parametrlari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik darajasini aniqlashga yordam beradi.

Korellyatsion tahlil orqali O'zbekistonda 2010–2024 yillar oralig'idagi quyidagi asosiy ko'rsatkichlar o'rtasidagi bog'liqlik aniqlangan:

2-jadval

Korellyatsion tahlil orqali O'zbekistonda 2010–2024 yillar oralig'idagi asosiy ko'rsatkichlar

Ko'rsatkich juftligi	Korellyatsiya koeffitsienti (r)	Bog'liqlik turi
Soliq yengilliklari va rasmiy bandlik darajasi	+0.72	Kuchli musbat bog'liqlik
Byudjet xarajatlari (bandlik dasturlari) va migratsiya darajasi	–0.68	O'rtacha salbiy bog'liqlik
Migratsiyadan tushgan valyuta miqdori va ishsizlik	–0.55	O'rtacha salbiy bog'liqlik

Korellyatsion ko'rsatkichlar shuni ko'rsatadiki, fiskal yengilliklar rasmiy bandlikka ijobiy ta'sir qilgan, ya'ni soliq imtiyozlari mavjud bo'lgan sohalarda rasmiy bandlik darajasi yuqoriroq. Shu bilan birga, bandlikni qo'llab-quvvatlash dasturlariga ajratilgan byudjet hajmining ortishi migratsiya darajasini pasaytirishga xizmat qilgan. Bu esa fiskal siyosat orqali tashqi mehnat oqimlariga ta'sir qilish imkoniyati mavjudligini tasdiqlaydi.

Regression tahlil yordamida fiskal omillarning bandlik va migratsiyaga ta'siri prognozlashtiriladi. O'zbekistondagi quyidagi oddiy chiziqli regression model misol tariqasida keltiriladi:

Model:

$$\text{Mehnat migratsiyasi hajmi} = 5.32 - 0.45 \times (\text{bandlik dasturlariga ajratilgan byudjet ulushi}) + 0.63 \times (\text{soliq yuki})$$

Tahliliy natijalar:

- Byudjet ulushi (x_1): Har 1% bandlik dasturlariga ajratilgan qo'shimcha mablag' migratsiya hajmini o'rtacha 0.45 birlikka kamaytiradi.
- Soliq yuki (x_2): Har 1% soliq yukining ortishi migratsiya hajmini o'rtacha 0.63 birlikka oshiradi.
- $R^2 = 0.79$ — model kuchli moslikka ega bo'lib, migratsiya hajmidagi o'zgarishlarning 79 foizi fiskal ko'rsatkichlar bilan izohlanadi.

Yuqoridagi korellyatsion va regression tahlillar O'zbekiston fiskal siyosatining bandlik va migratsiyaga bevosita ta'siri borligini statistik asosda ko'rsatmoqda.

Xususan:

- 1) Soliq yengilliklari va byudjet subsidiyalari rasmiy bandlikni oshirishda va migratsiyani kamaytirishda samarali vosita bo'lishi mumkin;
- 2) Yuqori soliq yuki esa aksincha, mehnat muhojiratinı kuchaytiruvchi omil bo'lib chiqmoqda;
- 3) Shu bois fiskal siyosatda soliq yukini qayta ko'rib chiqish, bandlik dasturlarini kengaytirish va hududiy farqlarni moliyaviy tartibga solish zarur bo'lmoqda.

Ushbu statistik asoslangan tahlillar orqali davlat fiskal siyosatini migratsiyaviy oqimlarni kamaytirish va mahalliy bandlikni rag'batlantirishga yo'naltirish imkoniyati ochiladi.

O'zbekiston fiskal siyosatining mehnat migratsiyasi va bandlikka ta'sirini o'rganishda uni "reaktiv" va "proaktiv" yondashuvlar nuqtai nazaridan baholash muhim ilmiy-nazariy ahamiyatga ega. Ushbu ikki model o'z tabiatiga ko'ra, davlatning iqtisodiy va ijtimoiy muammolarga qanday tarzda javob berishini yoki ularning oldini olishga qaratilgan mexanizmlarini aks ettiradi.

Reaktiv fiskal model bu - davlatning mavjud muammoga javoban (post-faktum) qo'llaydigan moliyaviy choralarini anglatadi. Masalan, O'zbekiston misolida, xorijda ishlayotgan mehnat migrantlarining ortib borayotgan oqimi ortidan hukumat ularni qo'llab-quvvatlash maqsadida "Mehr" dasturi doirasida moliyaviy yordam va reintegratsiya choralarini ko'rmoqda. Bu yondashuv asosan migratsiyaning oqibatlariga javoban shakllanadi. Reaktiv fiskal choralar sifatida, migratsiyadan qaytgan shaxslarga subsidiyalar, kredit imtiyozlari, vaqtinchalik ish o'rinlari tashkil etilishi va bandlik markazlari orqali yo'naltirilishi kabilarni keltirish mumkin.

Boshqa tomondan, proaktiv fiskal model - migratsiyaning sabablari bilan kurashishga qaratilgan, ya'ni ilg'or ogohlantiruvchi va barqarorlashtiruvchi yondashuv bo'lib, davlat tomonidan oldindan puxta rejalashtirilgan budjet siyosatini bildiradi. Bunga misol sifatida O'zbekistonda "Har bir oilaga – tadbirkorlik" dasturi orqali yoshlar va ayollar uchun imtiyozli kreditlar ajratish, qishloq hududlarida tadbirkorlikni moliyaviy rag'batlantirish hamda yangi ish o'rinlari yaratishga qaratilgan loyihalarni keltirish mumkin. Bu chora-tadbirlar aholining migratsiyaga bo'lgan ehtiyojini kamaytirishga xizmat qiladi.

Xalqaro tajribada, ayniqsa Estoniya va Germaniya kabi davlatlar proaktiv fiskal modelga tayangan holda, hududiy bandlik tengsizliklarini kamaytirish va zamonaviy soliq rag'batlari orqali ichki mehnat bozorini barqarorlashtirishga erishgan. Misol uchun, Germaniyada "Strukturaviy hududlarni moliyalashtirish dasturi" orqali demografik zaif hududlarda ish o'rinlarini subsidiyalash orqali mehnat migratsiyasi darajasini pasaytirishga erishilgan. Bu modelda fiskal siyosat faqat ijtimoiy yordam emas, balki bozorni barqarorlashtirish vositasi sifatida ishlaydi.

O'zbekistonda esa hali ko'proq reaktiv mexanizmlar ustunlik qiladi: ya'ni muammo yuzaga chiqqach, unga javob chorasi sifatida byudjet ajratmalari belgilanadi. Ammo asta-sekin, proaktiv modelga o'tish jarayoni boshlanganini kuzatish mumkin - xususan, mahalliy byudjetlar doirasida bandlikka ajratilayotgan mablag'lar ulushining ortib borayotgani, yoshlar va ayollar bandligini oshirishga qaratilgan soliq imtiyozlarining kengaytirilayotgani bunga misoldir.

Umuman olganda, maqolada taqdim etilgan konseptual farqlash orqali davlat fiskal siyosatining qanday yo'nalishda shakllanayotganini aniqlash, mavjud choralarni tahlil qilish va istiqbolli modelni aniqlash imkoniyati yuzaga chiqadi. Bu yondashuv esa siyosatshunoslik va iqtisodiy rejalashtirish nuqtai nazaridan amaliy ahamiyat kasb etadi.

Xulosa va takliflar

O'zbekiston fiskal siyosati va uning mehnat migratsiyasi hamda bandlik sohasiga ta'siri murakkab, ko'p omilli iqtisodiy va ijtimoiy tizimda shakllanmoqda. Tadqiqot davomida aniqlanishicha, hozirgi bosqichda fiskal siyosat asosan reaktiv yondashuv xususiyatiga ega bo'lib, migratsiyaning oqibatlariga qarshi choralar ko'rish orqali yechim izlamoqda. Biroq bu yetarli emas. Iqtisodiy barqarorlikka erishish, mehnat migratsiyasi oqimlarini kamaytirish va ichki bandlikni mustahkamlash uchun proaktiv fiskal siyosat yo'nalishlarini kengaytirish zarur.

Tahlillardan ko'rinadiki, davlat tomonidan bandlik dasturlariga ajratilayotgan byudjet mablag'lari hajmining oshishi migratsiya darajasini kamaytirishga xizmat qilmoqda. Bundan tashqari, soliq imtiyozlari va subsidiya mexanizmlarining aholi bandligini rag'batlantirishdagi roli yuqori baholandi. Shuningdek, xalqaro tajriba — xususan Germaniya, Estoniya, Filippin va Hindiston kabi davlatlar misolida — proaktiv fiskal yondashuvning samaradorligini ko'rsatdi.

Shu asosda quyidagi takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

1. Hududiy bandlik dasturlariga yo'naltirilgan fiskal resurslar hajmini oshirish, ayniqsa migratsiyaga moyil bo'lgan qishloq va chegaradosh hududlarda;
2. Proaktiv fiskal modelga asoslangan soliq siyosatini rivojlantirish, ya'ni yoshlar, ayollar va nogironligi bo'lgan shaxslar uchun soliq yengilliklarini kengaytirish;
3. Mahalliy byudjetlar mustaqilligini oshirish orqali joylardagi bandlik muammolarini tezkor hal etish, shuningdek, tuman va viloyat darajasida fiskal javobgarlikni kuchaytirish;
4. Migratsiyadan tushgan valyuta tushumlarini samarali investitsiyalarga yo'naltirish uchun fiskal mexanizmlar joriy etish, jumladan, migrantlar uchun investitsion soliq imtiyozlari;
5. Tashqi mehnat migratsiyasi bo'yicha rasmiy hamkorlik doirasini kengaytirish, migrantlarning huquqlarini himoya qiluvchi fiskal kafolatlar yaratish.

Yuqoridagi takliflarni amaliyotga tatbiq etish orqali O'zbekistonda fiskal siyosatning bandlik va migratsiyaga ijobiy ta'sirini kuchaytirish, aholining iqtisodiy farovonligini oshirish hamda mehnat bozorida barqarorlikka erishish mumkin bo'ladi. Shu tariqa, mamlakatning uzoq muddatli ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti uchun mustahkam fiskal asos yaratiladi.

Adabiyotlar

1. Bandiera, O., Bertrand, M., & Schoar, A. (2020). *The allocation of authority in organizations: A field experiment with bureaucrats*. *The Quarterly Journal of Economics*, 135(4), 1863–1926. Oxford University Press.
2. Mishra, P., & Facchini, G. (2022). Labor migration, remittances, and fiscal sustainability in developing economies. *Journal of Development Economics*, 158, 102944, 1–14. Elsevier. <https://doi.org/10.1016/j.jdeveco.2022.102944>
3. Chami, R., Fullenkamp, C., & Jahjah, S. (2018). *Are immigrant remittance flows a source of capital for development?* IMF Working Paper WP/03/189, 1–35. International Monetary Fund.
4. Docquier, F., & Rapoport, H. (2021). Global migration and inequality. *Review of Income and Wealth*, 67(2), 371–399. Wiley-Blackwell. <https://doi.org/10.1111/roiw.12438>
5. Davlat Soliq Qo‘mitasi va Bandlik vazirligi (2023). *Raqamli fiskal islohotlarning bandlikka ta’siri. Tahliliy hisobot, 5–20-betlar*. Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi.
6. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi va Byudjet kodeksi (2023). *Normativ-huquqiy o‘zgarishlar to‘plami. Adliya vazirligi nashriyoti*, 45–60-betlar.
7. Filimonova, L., Ismatullaeva, I., & Saydivaliyeva, B. (2024). Interrelation of migration and employment issues in economics of new Uzbekistan policy. *E3S Web of Conferences: Economics of New Uzbekistan Policy*, 451, Article 02031, 1–10. EDP Sciences. <https://doi.org/10.1051/e3sconf/202445102031>
8. The Diplomat. (2024, April 19). *How are patterns of labor migration from Uzbekistan changing?* The Diplomat, 1–3. <https://thediplomat.com/2024/04/how-are-patterns-of-labor-migration-from-uzbekistan-changing/>
9. Moog, A. (2024). *Internal migration after a uniform minimum wage introduction*. arXiv preprint, arXiv:2404.19590, 1–12. Cornell University.
10. Lastauskas, P., & Stakėnas, J. (2024). *Labor market policies in high- and low-interest rate environments: Evidence from the Euro area*. arXiv preprint, arXiv:2410.12024, 1–15. Vilnius University.
11. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi (www.stat.uz)

DEMOGRAFIYA VA MEHNAT BOZORI

BOSH MUHARRIR:

Umurzoqov Bahodir Xamidovich

MUHARRIR:

Bahriddinova Muazzam Azam qizi

